



## MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALARNING BESH RIVOJLANISH SOHALARI BO'YICHA BILIMLARINING O'ZLASHTIRILISHI

**Муртазаева Дилфуза Муротовна**

Халқаро Нордик университети магистранти;

**Лутфуллаева Нигора Халимбаевна**

Илмий раҳбар: псих.ф.н., доц.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14800900>

**Аннотация:** mazkur maqolada maktabgacha ta'limda o'quv-tarbiya jarayonini zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlanish sohalarda olib borilgan tajriba-sinovlar va mashg'ulotlar mobaynida o'tkazilgan metodlarning bolalar shaxsiy sifatlarini rivojlanishiga, mustaqil fikrlashga ta'siri va ijodiy faoliyatga jalb etish imkoniyatlarini kengaytirishi haqida ma'lumot keltirilgan.

**Калит so'zlar:** tajriba, intellektual salohiyat, integratsiya, innovatsiya, multimediya, xususiyatlar, kasbiy faoliyat, perseptiv qobiliyat, faollik, muvaffaqiyat, bilim, malaka.

**Аннотация:** в данной статье представлена информация о том, как методы, применяемые в ходе экспериментов и занятий, направленных на развитие образовательно-воспитательного процесса в дошкольном образовании на основе современных подходов, влияют на развитие личностных качеств детей, на самостоятельное мышление и расширяют возможности вовлечения в творческую деятельность.

**Ключевые слова:** опыт, интеллектуальный потенциал, интеграция, инновации, мультимедиа, характеристики, профессиональная деятельность, познавательные способности, активность, успешность, знания, компетентность.

**Abstract:** This article provides information on how the methods used in the course of experiments and classes aimed at developing the educational process in preschool education based on modern approaches affect the development of children's personal qualities, independent thinking and expand the possibilities of involvement in creative activities.

**Keywords:** experience, intellectual potential, integration, innovation, multimedia, characteristics, professional activity, perceptive abilities, activity, success, knowledge, skills.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida ulkan islohatlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, mamlakat kelajagi uchun muhim o'rin egallagan maktabgacha ta'lim sohasida bir qancha ijobiy o'zgarishlar sodir bo'moqda. Jumladan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya sifati va





samaradorligini oshirish, qulay shart - sharoitlarning yaratilishi, ya'ni ta'limiy rivojlantiruvchi muhit yaratilishiga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, ularning moddiy-texnika bazasini yaxshilash, malakali, kasbiy salohiyatli pedagog kadrlar bilan ta'minlash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar va zamonaviy ta'lim dasturlari tatbiq etish, bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash, bolalarni har tomonlama bilimli, immuniteti mustahkam, intellektual salohiyatli, o'zini anglagan, tanqidiy fiklash qobiliyatiga ega, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun etarlicha shart - sharoitlar, ta'limiy muhit yaratishga muhim masala sifatida diqqat qaratilmoqda.

**Asosiy qism.** Maktabgacha ta'limda har doim bolaning rivojlanishi muhim hisoblanadi. O'tgan yillar mobaynida maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda zamonaviy yondashuvlar innavatsion pedagogik texnologiyalarga e'tibor yanada kuchaytirildi. Shuningdek zamonaviy yondashuv bolalarni izlanish, kashfiyotlar va tajribalarni rag'batlantiradigan o'quv muhitlari yaratildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhitni yaratish va undagi ta'lim-tarbiya jarayonlarini sifatli tashkil etish va ushbu jarayonlarni o'yin faoliyati tarzida olib borish. Faoliyatdagi xilma-xillik o'sish sur'atlarini maksimal darajada amalga oshirish ishlari maqsadli yo'lga qo'yildi.

Magistrlik dissertatsiya ishimizda Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy yondashuvni samarali yo'lga qo'yish masalalari ilgari surildi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha tajriba - sinov ishlari Buxoro viloyat Vobkent tuman 17 - Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotiga olib borildi. Ushbu tajriba sinov jarayonida bir qancha ijobiy natijalarga erishildi. Tajriba - sinov ishlari Katta 1 va Katta 2 guruhlarda amalga oshirildi. Bolalar o'yin va metotlar orqali mustaqil fikrlab, nutqining rivojlanishiga da'vat etiladi. Ijtimoiy-emotsional rivojlanish zamonaviy yondashuvning bir qismi bo'lib, bolalar o'z his-tuyg'ularini boshqarishga, ularni empatiyasini rivojlantirib, tendoshlari bilan ijobiy munosabatlarini o'rnatishni o'rgatadi.

Ilmiy tadqiqot ishini amalga oshirishda tajriba - sinov ishlariga DMTTdan jami 52 nafar bola jalb etildi. Bolalarning dastlabki holatini aniqlash uchun, davlat talablarining beshta rivojlanish sohalari bo'yicha yosh doirasida sinov o'tkazildi. Sinov bolalarning mashg'ulot jarayonlarida, erkin faoliyat davrlarida, sayr faoliyatlarida, umuman olganda ikki oy davomidagi barcha faoliyat turlari davomida kuzatilib, belgilab olindi. Bolalar tasodifiy tanlash usuli bilan bizga kerak bo'lgan tajriba va nazorat guruhlariga birlashtirilib, ajratib olindilar.





Tajriba guruhlarida mashg'ulotlar loyihali ta'lim asosida ya'ni, yangi pedagogik texnologiyalar, turli xildagi yuqorida aytib o'tilgan maxsus ishlab chiqilgan metodlar, multimediyalar va eng muhimi yuqori talab darajasida jihozlangan rivojlanish markazlarida olib borildi. Bola shaxsida qaratilgan yondashuvli va faol integratsiyalashgan faoliyat olib borildi. Tajriba guruhlarida beshta faollik markazlaridan tashqari turli xil yo'nalishdagi burchaklar o'rin egallagan.

Bolalarga mahoratli pedagoglar va o'zim tomonimdan ta'lim-tarbiya ishlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlari yakunida quyidagicha yutuqlarga erishildi.


Har ikkala guruh bolalari davlat talablarining beshta rivojlanish sohalari bo'yicha, reyting nazorati talabiga muvofiq baholandi, ya'ni:

1. 55 - 70 ball - 3 baho
2. 71 -89 ball - 4 baho
3. 90 - 100 ball - 5 baho.<sup>1</sup>

Tajriba-sinovni boshlashdan oldin dastlab 2 ta katta guruh tajriba guruhi va nazorat guruhiga ajratilib davlat talablarining beshta rivojlanish sohalari bo'yicha bolalar bilimni aniqlashtirish maqsadida o'tkazildi.

Tajriba guruhi - katta 1 guruhida 26 nafar tarbiyalanuvchisi bor. Unda jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllanishi 60 %, ijtimoiy-hissiy rivojlanish 55%, nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari 55%, bilish jarayonining rivojlanishi 60%, ijodiy rivojlanish esa 55% tashkil etdi.

Nazorat guruhi sifatida esa katta 2 guruhi olindi. Bunda quyidagicha holatlar namoyon bo'ldi. Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllanishi 60 %, ijtimoiy-hissiy rivojlanish 50%, nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari 50%, bilish jarayonining rivojlanishi 50%, ijodiy rivojlanish esa 55% tashkil etdi. O'rtacha qiymat chiqarish uchun biz ularni shartli ravishda "yuqori", "o'рта", "quyi" darajalarga ajratdik. Tajriba-sinov natijalari shundan dalolat beradiki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhit bolalarning samarali faoliyati uchun dolzarbligi asoslandi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'limiy shlarni yuqori saviyada rejalashtirish, rivojlantiruvchi muhit negizidagi rivojlantiruvchi markazlardagi ta'limiy jarayonlarda zamonaviy yondashuvlar, ta'limning interfaol, samarali usullari hamda innovatsion pedagogik texnologiyalardan, yangicha metodlardan, bolalarning yosh xususiyatlari, imkoniyatlari va rivojlantirishga oid jihatlarni anglagan holda, bola shaxsiga individual yondashish, uning har tomonlama rivojlanishida xizmat qilishini isbotladi.





**Xulosa.** Tajriba guruhidagi bolalar jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzini shakllanishi bo'yicha 20 %, ijtimoiy-hissiy rivojlanish bo'yicha 20 %, nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari bo'yicha 25 %, bilish jarayonining rivojlanishi bo'yicha 20 %, ijodiy rivojlanish bo'yicha 30 % ijobiy natijaga erishganligini guvohi bo'ldik. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni har tomonlama kamol topishi uchun xizmat qiluvchi rivojlantiruvchi pedagogik muhiti kelajagimiz poydevori bo'lmish yosh avlodni yetuk shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur bo'lgan barcha manbaalarni o'z ichiga oluvchi, bola shaxsini to'laqonli rivojlantirishni ta'minlovchi yaxlit bir tizim sanaladi. Unda bola o'sadi, ulg'ayadi, o'rganadi, his etadi, o'rgangan bilimlarini amaliyotda qo'llab ko'radi, olam, atrof-muhit haqida bilimga ega bo'ladi, hamkorlik, ixtirolar, ijobiy munosabat kabi fazilatlar takomillashib boradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. F.Qodirova, Sh.Toshpo'latova, N.Kayumova, M.A'zamova. "Maktabgacha pedagogika".-T., "Ma'naviyat". 2019 y.- 688 b
2. N.M.Qayumova "Maktabgacha pedagogika". "TDPU" nashriyoti T.: 2013 y. - 183
3. M.E.Axmedova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. (Pedagogika tarixi). O'quv qo'llanma. O'zR oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: Tafakkur bo'stoni, 2011y. -128 bet.
4. K.Turg'unboyev, M.Tolipov, I.Oxunov "Ijtimoiy pedagogika asoslari" O'quv qo'llanma. Toshkent "Fan va texnologiya" 2008 y.
5. N.T.Omonov, N.X.Xo'jayev, S.A.Madyarova, E.U.Eshchonov. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Darslik. - T.: "Iqtisod-moliya" 2009 y. - 240 bet
6. Raxmonova S.M. "Preparing the graduate students of primary education for innovative professional activity". Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS) ISSN: 2776-0979, Volume 4, Issue 8, August, 2023 y. P 288-293.
7. Raxmonova S.M. "In improving the innovative professional activity of future pedagogues, problem-based learning the most effective method of teaching". Science and technologies. 2023 y. № 3 (1). P 107-112.
8. Evstaf'yeva L, Nabixanova Sh, Pak S.I va boshqalar "Maktabgacha ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya faoliyatini mavzuli rejalashtirish" Tayyorlov guruhi. "Ilk qadam " dasturiga ilova Toshkent. 2018 yil.

